

Funksional blokni modernizatsiyalash

Ishonchli xizmat muddati va yaxshilangan ishlatish uchun



Siz uchun afzalliklar:

- Operator qulayligi uchun aniq ko'rinish
- Yaxshilangan foydalanish imkoniyati
- Ishonchli sensorli amallar
- Uzaytirilgan xizmat muddati



Funksional blokni modernizatsiyalash orqali mashina foydalanuvchisi interfeysini yaxshilash

Mashina ishonchli ishlashi uchun

Funksional blok mashinaning energiya-boshqaruv blokiga birlashtirilgan. U ishlab chiqarish parametrlari, shuningdek, o'rash mashinasining ishlashi uchun zaruriy texnologik ma'lumotlarni boshqaradi va saqlaydi. Ishlayotgan mashinaning ichki moslamalari bilan real vaqtidagi ma'lumotlarni ayirboshlash mashinaning markaziy funksional blokida amalga oshadi. Texnologik parametrlardagi o'zgarishlar, unumdorlikni kuzatish va texnik xizmat faoliyatlari funksional blok ravon ishlashini talab qiladi.


Muntazam ishlatiladigan detallar, masalan, sensorli panel, suyuq kristalli displey (LCD), quvvat ta'minoti zanjiri, aloqa interfeysi va boshqa periferik qurilmalar mashinaning tartibsiz va beqaror ishlashiga sabab bo'lishi mumkin. Bunday nosozliklar ishlab chiqarishda yo'qotishlarga va kalava ip to'planishiga oid muammolarga olib keladi.

Shu sababli Rieter mijozning ishlatish jarayoni va harorat, namlik kabi atrof-muhit sharoitlariga bog'liq ravishda funksional blokka profilaktik texnik xizmat ko'rsatish va modernizatsiyalashni yetti yil ishlatgandan so'ng amalga oshirishni tavsiya qiladi.


Modernizatsiyalash jarayonining umumiy ko'rinishi

Rieter yangi sensorli panel, LCD va boshqa diskret elektron detallardan iborat ta'mirlash to'plami bilan funksional blokni modernizatsiyalashni tavsiya qiladi.

Mashina interfeysining to'g'ri ishlashini ta'minlash uchun xiralashgan LCD bilan javob bermayotgan sensorli panel yangi detallarga almashtiriladi. Shuningdek, ma'lumotlarni yaxshiroq saqlash uchun batareya quvvati zanjiri o'zgartiriladi. Asl qismlardan foydalanish asl holatida ishlashini tiklashga yordam beradi. Rieterning vakolatli ta'mirlash xizmatlari markazi funksional blokka profilaktik ta'mirlash xizmatini ko'rsatadi.



Ta'mirlashdan oldin



Ta'mirlashdan keyin




LCD panel



Sensorli panel



Printer moslamasi



Asos platasi



Protsessor platasi



O'zgartirilgan batareya tutqich

Rieter Machine Works Ltd.
Klosterstrasse 20
CH-8406 Winterthur
T +41 52 208 7171
F +41 52 208 7283
aftersales@rieter.com

Rieter India Private Ltd.
Gat No. 768/2, Village Wing
Shindewadi-Bhor Road
Taluka Khandala, District Satara
IN-Maharashtra 412 801
T +91 2169 664 141
F +91 2169 664 226

**Rieter (China) Textile
Instruments Co., Ltd.**
390 West Hehai Road
Changzhou 213022, Jiangsu
Xitoy Xalq Respublikasi
T +86 519 8511 0675
F +86 519 8511 0673

Bu broshyuradagi ma'lumotlar ta'minotchisiga tegishli ma'lumotlar va rasmlar chop etish sanasi holatiga to'g'ridir. Rieter maxsus bildirishnomasiz istalgan vaqtda har qanday o'zgartirish kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi. Rieter tizimlari va Rieter ixtiroolari patentlar bilan himoyalangan.

3559-v1 uz 2301